

# **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

## **JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI SAMARQAND FILIALI**



### **“OLIMPIYA BILIM ASOSLARI” MODULI**


**“Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi” yo‘nalishi bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim  
muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish kursi uchun**

**O‘qituvchi: A‘zamxonov Oltinxon Ashrafxon o‘g‘li**

## **2-mavzu: Zamonaviy Olimpiya harakatining qayta tiklanishi.**

### **Reja:**

- 1. Olimpiya o'yinlarini qayta tiklash g'oyasining rivojlanishi va hayotga tatbiq etilishi.**
- 2. Xalqaro Olimpiya qo'mitasi.**



Xalqaro sport va Olimpiya harakati XIX asrning oxirida paydo bo'lgan. Xalqaro sport va Olimpiya harakati vujudga kelishining eng muhim sabablaridan biri sportni rivojlantirish va xalqaro sport uyushmalarini tuzush bo'lgan. Zamonaviy sport XIX asrda ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ishlab chiqarish, harbiy fan, madaniyat va sa'nat sohasidagi taraqqiyot mahsuli sifatida vujudga kelgan. 1824-yilda arxeolog lord Stankof Olimpiya shahrida jiddiy qazilmalarni olib boradi va uning chizmasini tuzadi. Shu narsa Olimpiya o'yinlarini tiklash g'oyasini rivojlantirishga turtki bo'ladi.






XIX asrning oxirida fransuz jamoat arbobi Pyer de Kuberten zamonaviy Olimpiya o‘yinlarini tiklash g‘oyasini hayotga tatbiq etishga muvafaq bo‘ladi.

1892-yil 25-noyabrda o‘zining mashhur **“Olimpizmning uyg‘onishi”** ma‘ruzasini Sorbonna universitetida o‘qib eshittiradi.

1894-yil 16-iyunda Pyer de Kuberten Olimpiya o‘yinlarini tiklash tarfdorlarini to‘plab, I-Xalqaro sport kongressini tashkil qiladi. Bu Kongress Parijda o‘tkazildi va 12-ta davlatdan 72-ta vakillar qatnashdgan, 21-ta davlat o‘z roziligini yozma ravishda yuborgan.


Pyer de Kuberten kongressda Xalqaro Olimpiya qo‘mitasini (XOQ) ta‘sis etish taklifini kiritadi va 1894-yil 23-iyunda XOQ tashkil etilgan. Shu boisdan 23-iyun sanasi har yili butun danyoda **“Olimpiya kuni”** sifatida nishonlanadi. Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi (XOQ) tarkibiga 12-davlatdan 14-vakillar kiritilgan.




**I Xalqaro Olimpiya  
Kongressi 1894-yil  
16-23 iyunda  
o‘tkazilgan va unda  
to‘rtta asosiy masala  
muhokama qilingan.**



Havaskorlik va professional sporti haqida.



Olimpiada o‘yinlarini qayta tiklash to‘g‘risida.



Olimpiada o‘yinlarining dasturi va uni o‘tkazish tartiblari.



Xalqaro Olimpiya qo‘mitasining tarkibi to‘g‘risida.

# Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi

Kongressda Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining nizomi, asosiy xujjati **“Olimpiya xartiyasi”** tasdiqlagan (yangi tahriri 1999-yil qabul qilingan).

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi nodavlat tashkilot bo'lib, yuridik shaxs maqomi bilan asotsiatsiya shaklida tuzilgan. Olimpiya Xartiyasiga binoan Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- havaskorlik sporti asosi hisoblangan jismoniy va axloqiy sifatlarni rivolantirishga yordam berish;


- yoshlarni sport yordamida o'zaro kelishuv va do'stlik ruhida tarbiyalash;

- butun dunyoga olimpiya tamoyillarini keng yoyish, xalqlar o'rtasida yaxshi niyat muhitini yaratish;

- jahon sportchilarini har 4 yilda bir marta Olimpiya o'yinlarida uchrashtirish.

Xalqaro Olimpiya Qo'mitasining majburiyatiga yozgi va qishki Olimpiya o'yinlarini muntazam o'tkazish, ularni doimiy takomillashtirib borish, butun dunyoda sportning rivojlanishiga rahbarlik qilish kiradi.

# Demetrius Vikelas




Xalqaro Olimpiya  
qo'mitasining birinchi  
presidenti - (1894-1896)  
*Demetrius Vikelas* – (1835-  
1908)



GRETSIYA



Xalqaro Olimpiya  
qo'mitasining ikkinchi va  
to'rtinchi prezidenti - (1896-  
1916) - (1919-1925)  
Pyer de Kuberten – (1863-  
1937)



FRANSIYA



Xalqaro Olimpiya  
qo'mitasining o'n birinchi  
presidenti - (2013 – h.v.)  
Tomas Bax – (1953)



GERMANIYA



**Olimpiya bayrog‘i** – oq rang matodan bo‘lib, uning o‘rtasida beshta rangli olimpiya halqalarining tasviri mavjud. Olimpiya bayrog‘i Kuberten tomonidan 1913-yilda tavsiya qilingan va 1914-yil Parij kongressida tasdiqlangan.

**Olimpiya ramzlari** Pyer de Kuberten tomonidan ishlab chiqilgan va uning tashabbusi bilan Olimpiya o‘yinlariga kiritilgan. Olimpiya ramzlarining mohiyati va huquqlari Olimpiya xartiyasida belgilangan.





**Olimpiya belgisi** – beshta olimpiya halqalaridan iborat. Olimpiya halqalarining rangi quyidagi tartibda bo‘lishi shart:

Ko‘k, qora, qizil, sariq va yashil. Bunda ko‘k, qora va qizil rangli halqalar yuqori qatorda, sariq va yashil rangli halqalar pastki qatorda joylashgan. Olimpiya belgisi ramziy ma’noda jahonning beshta qit’asini bildiradi.



OLIMPIYA HALQALARINING RANGLARI	
KO‘K	YEVROPA
QORA	AFRIKA
QIZIL	AMERIKA
SARIQ	OSIYO
YASHIL	AVSTRALIYA

**Olimpiya shiori** – (lotincha) “Citius, Altius, Fortius” – “Tezroq, Balandroq, Kuchliroq” soʻzlarini ifodalaydi. Olimpiya shiori olimpiya harakatining barcha ishtirokchilariga qaratilgan boʻlib, insonlarni barkamolikka intilish va Olimpiya oʻyinlari ruhini saqlashga chaqiradi.

**CITIUS - TEZROQ**

**ALTIUS - BALANDROQ**

**FORTIUS - KUCHLIROQ**

**COMMUNITER - BIRGALIKDA**

**NEW  
OLYMPIC  
MOTTO**

The graphic features the Olympic rings in orange and a green torch on the right side, set against a blue and purple gradient background.

**“Faster, Higher, Stronger -  
Together”.**

**“Citius, Altius, Fortius – Communiter”**

**XXXII yozgi Tokio 2020 Olimpiada oʻyinlari shu shior ostida oʻtkazildi.**

Yangi shiorning mazmuni shundan iboratki, **agar sen tezroq borishni istasang buni yakka holda amalga oshirishing mumkin. Ammo uzoqroqqa borishni istasang, buni birgalikda amalga oshirish lozim.**

Olimpiya mash'ali Alfey daryosi vodiysidagi Kronos tog'yon bag'rida quyosh nurlaridan yondirilib, o'yinlarning tantanali ochilishiga estafeta bilan olib kelinadi va olimpiada stadionidagi maxsus mehrobda o'yinlar yopilguncha (16 kun) yonib turadi.

Olimpiya alangasi **poklik**, g'alaba uchun **kurash**, **tinchlik** va **do'stlikni** anglatadi.

IX Olimpiya o'yinlari 1928-yil (Gollandiya)ning Amsterdam shahrida bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlarida ilk bor stadionlarda olimpiya mash'ali yoqilgan.





# Olimpiya qasamiyodi

## Sportchilarning qasamiyodi

Men barcha sportchilar nomidan ushbu Olimpiada o'yinlarida sidqidildan, xolisona, musobaqalarni haqiqiy sport ruhida o'tkazishga ko'maklashadigon qoidalarni hurmat qilgan va ularga rioya qilgan holda, sport shon-shuhrati hamda o'z jamoalarimiz iftixori uchun ishtirok etamiz, deb vada beraman.

## Hakamlarning qasamiyodi

Men barcha hakamlar va rasmiy shaxslar nomidan ushbu Olimpiada o'yinlari paytida o'z majburiyatimizni sidqidildan, xolisona, musobaqalarni haqiqiy sport ruhida o'tkazishga ko'maklashadigon qoidalarni hurmat qilib va ularga rioya qilgan holda bajaramiz, deb va'da beraman.

## I yozgi Olimpiya o'yinlari

1896-yil 6–15 aprelda Afina shahrida (Gretsiya) bo'lib o'tgan. I yozgi Olimpiya o'yinlarida 14- mamlakatdan 295 nafar sportchi ishtirok etgan.

Olimpiya o'yinlari dasturiga **9-ta** sport turlari: **yengil atletika, gimnastika, suzish, og'ir atletika, yunon-rum kurashi, o'q otish, qilichbozlik, velosport va tennis** kiritilgan. Bu o'yinlarda AQSH sportchilari yengil atletika bo'yicha yuqori natijalarni namoyish etganlar.

### I (yozgi) Olimpiya o'yinlarining medallar jadvali

O'rin	Davlat	oltin	kumush	bronza	Jami
1	Gretsiya	10	17	19	46
2	AQSH	11	7	2	20
3	Germaniya	6	5	2	13
4	Frantsiya	5	4	2	11
5	Angliya	2	3	2	7

**2024-yili Fransiyaning Parij shahrida bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya o‘yinlarida barcha sport turlari bo‘yicha litsenziyalar taqsimoti e‘lon qilindi.**

Xalqaro olimpiya qo‘mitasi rasmiy saytining xabar berishicha, sportning ayrim turlari bo‘yicha ishtirokchilar soni Tokio olimpiadasiga nisbatan kamaygan. Suv sporti turlari, yengil atletika, boks, kanoeda eshkak eshish, velosport, gimnastika, dzyudo, eshkak eshish, yelkanli sport, o‘q otish, og‘ir atletika shular jumlasidan.

Shuningdek, Olimpiada o‘yinlari tarixida birinchi marta Parij o‘yinlarida gender tenglik ta‘minlanadi. 32-ta sport turining har birida teng miqdordagi erkak va ayol sportchilar qatnashishi ko‘zda tutilgan va ishtirokchilar soni ham shunga muvofiq taqsimlangan.





**E'TIBORINGIZ UCHUN  
RAHMAT!!!**